

№ 3 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
ELECTRONIC JOURNAL

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 3 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфисилиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети.

ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот

технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохидা Зайнисевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллый университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллый университети;

Содиқова Шоҳида Марҳабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура курилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллый университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

“Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй.

Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Axmedov Jasurbek, Jabborova Gavharshod
QANQA ARXEOLOGIK YODGORLIGINI MUZEYLASHTIRISH MASALASI 9-14

Шуҳрат Эргашев
ФРАНЦИЯДА ИККИНЧИ РЕСПУБЛИКА ИНҚИРОЗИ ВА 1851 ЙИЛГИ ДАВЛАТ
ТҮНТАРИШИ 15-23

Касимова Шахноза Алишеровна
ПРИЕМЫ ЭФФЕКТИВНОЙ КОММУНИКАЦИИ В МУЗЕЙНОЙ ЭКСКУРСИИ 24-29

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Файзиева Ширин Шодмоновна
АГРОКЛАСТЕРЛАР ВА МАҲСУЛОТ ЕТИШТИРУВЧИЛАР ЎРТАСИДАГИ ҲАМКОРЛИКНИНГ
ИҚТИСОДИЁТДА ТУТГАН ЎРНИ 30-35

Musagaliyev Ajsiniaz Жумагулович, Dустова Мухайё Худайбердиевна
ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ КОРХОНАЛАРИНИ Қўллаб-қувватлаш борасидағи айрим
МАСАЛАЛАР 36-41

Murodova Nargiza Utkirovna
TURIZM MARKETING FAOLIYATIDA STRATEGIK BOSHQARUVNING AHAMIYATI 42-47

Kuchkarov Baxrom Kuziyevich, O'rmonov Xasanboy Xaydarovich
KOMPANIYALARNING MOLIYAVIY TO'LOVGA LAYOQATSIZLIGI XAVFINI ANIQLASH 48-55

Temirova Feruza Sagdullayevna
MARKETINGNING ZAMONAVIY TEHNOLOGIYASI -
BRENDING FAOLIYATINI RIVOJLANТИRISH 56-62

Sobirova Marhabo Haitovna
MEVA-SABZAVOT KOOPERATSIYASINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH
YO'LLARI 63-67

Mamajonova Gulasal Oribjon qizi
KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISHNING
SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI 68-77

Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich
O'ZBEKİSTON IQTISODIYOTINING RIVOJLANISHIDA INVESTITSIYA RISKLARINI
BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH 78-87

<i>Тўхтамишов Азиз Қаҳрамонович</i>	
КЛАСТЕР ЁНДАШУВИ АСОСИДА ТУРИЗМ СОҲАСИНИНГ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ МОҲИЯТИ, МАЗМУНИ ВА ТАМОЙИЛЛАРИ	88-101
<i>Каржавова Хуршида Абдумаликовна</i>	
МАҲАЛЛА ТИЗИМИДА ИННОВАЦИОН ИЖТИМОЙ ХИЗМАТЛАР КЎРСАТИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ	102-110
<i>Soliyev Dilmurod Jamolovich</i>	
AYLANMA MABLAG'LARNI SAMARALI BOSHQARISH KORXONA FAROVONLIGINING ASOSIDIR	111-119
<i>Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna</i>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH MASALALARI	120-130

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

<i>Тўраев Шавкат Нишонович</i>	
ЖАМИЯТ МАФКУРАСИ ИЖТИМОЙ САФАРБАР ЭТИШНИНГ АСОСИЙ ОМИЛИ	131-137
<i>Qodirov Davronbek Hoshimovich</i>	
TASAVVUF TA'LIMOTINING NAZARIYOTCHISI – ABULQOSIM QUSHAYRIY	138-143
<i>Sharipov Dilshod Baxshilloyevich</i>	
TINCHLIKNING UNIVERSAL (DUNYOVIIY) TARTIB BO'YICHA TAHLILI	144-148

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<i>Гаппаров Алибек Қаршибоевич</i>	
ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ЛЕКСИКАНИНГ СОЦИОЛИНГВИСТИК АСПЕКТИ	149-155
<i>Fayzieva Zuxra, Sharipova Yoqt Qudratillayevna</i>	
APPLICATION OF GAME TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGE TO THE BLIND AND VISUALLY IMPAIRED	156-161
<i>Ахмедшина Лилия Рафаэльевна</i>	
РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТОВ «МУЖ » и «ЖЕНА» В ПОСЛОВИЦАХ И ПОГОВОРКАХ.....	162-166
<i>Kholmuminova Makhliyo</i>	
DIFFERENCE BETWEEN MEANINGS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES	167-171
<i>Shirinova Yekaterina</i>	
NUTQIY TAFAKKURNING PSIXOLINGVISTIK MUAMMOLARI	172-178

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Кутлымуратов Фарҳад Қалбаевич</i> ЮРИДИК ШАХСНИ ҚАЙТА ТАШКИЛ ЭТИШДА СОЛИДАР ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАЛАРИ	179-185
<i>Kasimov Nodirjon Sodikjonovich</i> QASDDAN ODAM O'LDIRISH JINOYATINING TUSHUNCHASI, TAVSIFI VA JINOIY HUQUQIY XUSUSIYATLARI	186-196
<i>Урманбаева Ферузахон Саттаровна</i> ВАСИЙЛИК ВА ҲОМИЙЛИКНИНГ ЗАРУРИЯТИ ВА МОҲИЯТИ	197-203

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Tursunaliyev Ilhomjon Axmedovich</i> “HAYOT DAVOMIDA TA'LIM” – JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARINI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMI SIFATIDA (NAZARIY JIHATLAR TAHLILI)	204-210
<i>Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich</i> BO'LAJAK REJISSLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA TRENING MASHQLARINING AMALIY AHAMIYATI	211-217
<i>Turdimurodov Dilmurod Yo'ldoshevich</i> YUQORI SINF O'QUVCHILARIDA QAT'IYATLILIK SIFATINI JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA TARBIYALASH	218-223
<i>Бабаходжаева Наргиза Мухитдиновна</i> ОЛИЙ ТАЪЛИМДА ПЕДАГОГ КАДРЛАРНИНГ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИНИ ПСИХОЛОГИК-ПЕДАГОГИК ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ	224-229
<i>Mengliqulov Xayrulla Aliqulovich</i> HARAKATLI O'YINLAR ORQALI 14-15 YOSHLI SUZUVCHLARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH	230-236
<i>Fayzullaeva Madina Abdumumin kizi</i> ADVANCED PEDAGOGICAL EXPERIENCES IN ORGANIZING AND DEVELOPING THE EDUCATIONAL PROCESS ON THE BASE OF DIGITAL TECHNOLOGIES	237-244
<i>Yusupov Dilmurod Abdurashidovich</i> YADRO FIZIKASI BO'LIMLARINI O'QITISHDA INNOVATSION KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH ORQALI TALABALAR FAOLLIGINI OSHIRISH	245-254
<i>Ergashev Omonboy Turgunbayevich</i> TALABALARNING BADIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY ZARURATI VA PEDAGOGIK ASOSLARI	255-260

Ruzmetova Novval Vahabdjanovna

- THE ROLE OF FOLK TRADITIONS IN FORMING LEGAL CULTURE OF STUDENTS OF LAW
SCHOOLS 261-269

Raxmatov Otabek Urinbosarovich

- BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARIDA MILLIY SPORT TURLARI ASOSIDA AMALIY
KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI 270-274

Makhmudov Furqat Djumaboyevich

- YORUG'LIK KVANT NAZARIYASINING VUJUDGA KELISHI. YORUG'LIK KVANTI MAVZUSINI
O'QITISH USULLARI 275-281

Бабахова Гулзиба Зиятбаевна

- К ВОПРОСУ МЕТОДИКИ ИЗУЧЕНИЯ ТЕОРИИ АТОМОВ ВОДОРОДА ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ
КУРСА КВАНТОВАЯ МЕХАНИКА 282-289

Dexkanov Sherzod Abdumatalibovich

- KAFEDRALARARO BITIRUV MALAKAVIY ISHLARINI TAYYORLASH – SIFATLI TA'LIMNI
TA'MINLASHNING MUHIM OMILI SIFATIDA 290-296

Ҳакимова Муқаддас Ҳасановна

- КОМПЕТЕНТЛИ ЁНДАШУВ АСОСИДА БЎЛАЖАК ЖИСМОНИЙ
ТАРБИЯ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ-ПЕДАГОГИК ИЖОДКОРЛИГИНИ
РИВОЖЛАНТИРИШ 297-301

09.00.00 – Фалсафа фанлари

Qodirov Davronbek Hoshimovich
 Buxoro davlat universiteti, falsafa doktori (PhD)
dagotys@mail.ru, (91) 4030805

TASAVVUF TA'LIMOTINING NAZARIYOTCHISI – ABULQOSIM QUSHAYRIY

Annotatsiya. Maqolada X-XI asrlarda yashagan, mashhur so'fiy, alloma va mutafakkir Abulkosim Abdulkarim Qushayriyning hayoti, u yashagan davrda xalifalikdagi ijtimoiy-siyosiy muhit hamda madaniy hayot, shuningdek, tarixiy jarayonlar yoritiladi. Xususan, Qushayriy dunyoqarashi va ilmiy merosining shakllanishida o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy muhit, shofe'iy-ash'ariy maktabining ta'siri, allomaning tasavvuf bilan qiziqishi falsafa tarixi nuqtai nazaridan tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-siyosiy muhit, madaniy hayot, tasavvuf, tushuncha, davlat, islom, tafakkur, shofe'iylik, ash'ariylik, hanafiylik.

Кодиров Давронбек Хашимович
 Бухарский государственный университет,
 доктор философии (PhD)

ТЕОРЕТИК СУФИЙСКОГО УЧЕНИЯ – АБУЛКАСИМ КУШАЙРИ

Аннотация. В статье описывается жизнь известного суфия, ученого и мыслителя Абулкасима Абдулкарима Кушайри, жившего в X-XI веках, раскрывается общественно-политическая среда и культурная жизнь халифата, а также исторические процессы. В частности, с позиции истории философии анализируется общественно-политическая обстановка того периода, влияние шафиитско-ашаритской школы в формировании мировоззрения и научного наследия Кушайри, в том числе интерес мыслителя суфийским учением.

Ключевые слова: общественно-политическая среда, культурная жизнь, суфизм, понимание, государство, ислам, мышление, шафиизм, ашаризм, ханафизм.

Kodirov Davronbek Khashimovich
 Bukhara State University, Doctor of Philosophy (PhD)

THE THEORETIST OF SUFI DOCTRINE - ABULKASIM KUSHAYRI

Abstract. The article describes the life of the famous Sufi, scientist and thinker Abulkasim Abdulkarim Kushayri, who lived in the X-XI centuries, reveals the socio-political environment and cultural life of the caliphate, as well as historical processes. In particular, from the standpoint of the history of philosophy, the socio-political situation of that period, the influence of the Shafi-Asharite school in shaping the worldview and scientific heritage of Kushayri, including the thinker's interest in Sufi teaching, are analyzed.

Keywords: social and political environment, cultural life, Sufism, understanding, state, Islam, thinking, Shafism, Asharism, Hanafism.



<https://doi.org/10.47390/1342V3I3Y2023N17>

Kirish. Sharq Renessansining mashhur allomasi, islom tafakkurining yorqin namoyandasini, ko'pgina tasavvuf ta'limoti vakillarining ma'naviy ustozi bo'lgan Abulqosim Abdulkarim Qushayriy shaxsini o'rganishda, avvalo, u yashagan davr, o'sha paytdagi ijtimoiy-siyosiy muhit hamda madaniy hayot to'g'risida tushunchaga ega bo'lishimiz zarur.

Allomaning to'liq ismi Abdulkarim bin Havozin Abdulmalik bin Talxa bin Muhammad an-Naysaburiy Abulqosim al-Qushayriy an-Naysaburiydir. Abulqosim Qushayriy asli xurosonlik bo'lib, 376 hijriy yilning rabi' ul-avval oyida (milodiy 986 yilning iyul oyida) Eronning shimoli-sharqida, Nishopurga yaqin joylashgan Ustuvo shahrida badavlat oilada tug'ilgan. Uning ajdodlari arab bo'lganlar. Ustuvo shahri toki XIII asrda mo'g'ullar istilosiga qadar xalifalikning sharqiy qismidagi eng boy madaniy markaz hisoblangan.

Qushayriyning nasl-nasabi Xuroson hududiga kelib qolib o'rashgan, asli arab bo'lgan Bani Qushayr qabilasiga borib taqaladi. Allomaning onasi arab qabilasi Bani Sulaymdan bo'lib, fozila ayol va ilm sohibasi edi [1:166]. Qushayriyning tog'asi Abu Oqil as-Sullamiy Ustuvo viloyatidagi bir qancha qishloqlarga egalik qilgan, shu bilan birga hadis ilmining taniqli bilimdoni ham bo'lgan. Aynan, uning tog'asi yoshligida birinchilardan bo'lib ilohiyot sohasida unga ustozlik qilgandi. Mutafakkirning yoshligi haqida ma'lumot kam. Ma'lumki, u yoshligida Abulqosim Olimoniydan arab tili va fasohat, adab ilmlarini mukammal o'rgangan [2:205]. Shu bilan birga u jang san'at, ot minish va kamondan otishni o'zlashtirgan. Qushayriyning otasi yoshligida vafot etgani uchun u bolaligidanoq faqat ichki sezgisi va bilimiga tayangan holda mustaqil qaror qabul qilishga majbur bo'lgan.

Qushayriy o'n besh yoshga to'lganida o'ziga qarashli bo'lgan qishloqdan olinadigan soliqlarni kamaytirish maqsadida hisob va xo'jalik yuritishni o'rganish uchun Xuroson poytaxti Nishopurga keladi. U chekka bir qishloqdan chiqqan o'smir bola bo'lganligi sabab o'sha davrdagi diniy-falsafiy fikr va oqimlardan yiroq edi. Shuning uchun Nishopurda har xil falsafiy, g'oyaviy va diniy qarashlarga ega bo'lgan turli maktablar hamda oqimlar tarafdarlaridan ta'sirlangan va kuchli taassurotdan, navqiron Qushayriy diniy va falsafiy ilmlarga qiziqishi ortib, ularni o'rganishni boshlaydi. U 1001 yilda Abu Ali Daqqaq (1015 y.v.e.) asos solgan mashhur tasavvuf maktabiga qo'shilib, tasavvuf ilmidan ta'lim olishni boshlaydi. Yigitning iste'dodini ko'rgan Daqqaq unga ilm berishda e'tibor qaratadi. Qushayriy ustozining eng sevimli shogirdi va keyinchalik davomchisiga aylanadi. Abu Ali Daqqaq hatto shogirdini qizi Fotimaga (1001-1088 yy.) uylantiradi va Qushayriy uning kuyoviga aylanadi [1:166].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Rus tadqiqotchisi V.A.Drozdov o'z maqolasida R.Gramlich ishiga tayangan holda Daqqaq shogirdlaridan birinchi navbatda islom ahkomlarini o'rganishni talab qilgan. Shuning uchun Qushayriy tasavvuf ta'limotidan ta'lim olmay, balki ko'p vaqtini mashhur fiqhshunos va muhaddislarning asarlarini o'rganish, fiqh va aqoid bo'yicha darslarni o'zlashtirish bilan o'tkazdi [3:244]. Shu bilan birga Qushayriy faqih va ash'ariylik maktabining eng ko'zga ko'ringan mutakallimi Boqilloniy (1013 y.v.e.) ma'ruzalariga ishtirot etishni boshlaydi. Qushayriy ustozi Daqqaqning vafotidan so'ng uning maktabidagi so'fiylar majlisi – majlis ut-tazqirga rahbarlik qila boshlaydi. U madrasada dars berishdan tashqari haftaning ikki kunini kitob yozishga bag'ishlaydi. Bundan buyon uning murshidi va ma'naviy ustozi Sullamiy bo'ladi. Abu Abdurrahmon Muhammad bin al-Husayn as-Sullamiy (942-

1021yy.) Xuroson tasavvuf maktabining yirik vakili, ko'pgina mumtoz tasavvufiy asarlar, xususan, "Tabaqot us-sufiya" (So'fiyarning darajalari) agiografik asarning muallifi hisoblanadi. Biroq, mutafakkirning yangi murshidi Abu Ali Daqqoqning vafotidan bir yil o'tib bu dunyonи tark etadi. Shuning uchun ham Qushayriy umrining oxirigacha o'zining ma'naviy ustozni va murshidi deb birinchi ustozini biladi. Shunday qilib, Sullamiyning vafotidan so'ng Qushayriy Xurosonning eng ko'zga ko'ringan diniy arboblaridan biriga aylanadi.

Qushayriy ustozining maktabini boshqarar ekan, 1019 yilda Qur'on Karimga "Latoif ul-ishorot fil-Qur'on" (Qur'ondagi nozik ishoralar) nomli katta tafsirini yozib tugatadi. Bu tafsir uning ulamolar orasida yanada olim sifatida obro'sining oshishiga va maktabining mashhur bo'lishiga sabab bo'ladi. Allomaning zamondoshi, shoir Abul-Hasan al-Boxarziy (1075 y.v.e.) uning ma'ruzalarida qatnashgach u haqda "Dumyat ul-qasr" (Saroy qo'g'irchog'i) shunday yozadi: "Agar u o'zining tanbeh beruvchi so'zlarining qamchisi bilan qoyalarni urganida edi, ular erib ketgan bo'lardi; agar Iblis uning xutbalarida eshitganida imon keltirib, haq dinni qabul qilgan bo'lar edi" [3:233].

Qushayriy hadis to'plash maqsadida islomdagi muqaddas qadamzo va ziyoratgohlariga ko'p sayohat qiladi. U Qur'on tafsirini yozib tugatgach shofe'iy faqiji Abu Muhammad Juvayniy (1043 y.v.e.) va olimi Abu Bakr al-Xusravgiri (1066 y.v.e.) hamrohligida haj ziyoratiga boradi.

Mutafakkir hayoti davomida asosan faqih va mutakallimlar bilan do'stona munosabatlarni ushlab turgan. Uning suhbatdoshlari orasida buyuk tasavvuf allomalari Daqqoq va Sullamiyning bo'lishi bundan dalolat beradi. Shu bilan birga, u shofe'iy-ash'ariylik mazhabidan uzoqroq bo'lган, konservativ qarashlarga ega diniy ulamolar orasida ham obro'ga ega edi. Qushayriy 1046 yilda hajdan qaytgach hadis ilmidan dars bera boshlaydi va tez orada Nishopurdagi eng nufuzli diniy ulamoga aylanadi.

Tojiddin Subkiy Qushayriyning intuitiv bilishi bilan bog'liq bir voqeani keltiradi. Mutafakkirning o'g'li og'ir kasalga duchor bo'ladi. Qushayriy tushida bir ilohiy ro'yoni ko'radi va unga "Tavba", "Yunus", "Nahl", "Me'roj", "Shuar" va "Fussilat" suralaridagi olti shifobaxsh oyat kashf bo'ladi. Rivoyatga ko'ra, bu ro'yo tufayli Qushayriyning o'g'li shifo topadi va shundan buyon ushbu suralardagi oyatlar tasavvuf amaliyotida kasallarni davolashda qo'llanila boshlangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Rivoyatlarga ko'ra, Qushayriyning asosiy raqibi sakr, ya'ni tasavvufdagi mastlik holi tarafdori bo'lган xurosonlik so'fiy Abu Said Mayxoniy (1049 y.v.e.) bo'lган. Mashhur so'fiy Abu Said Xayrning nevarasi Muhammad Mayxoniy tomonidan ta'lif etilgan "Asror at-tavhid fi maqomot shayx Abu Said" (Shayx Abu Said maqomidagi ilohiy vahdat sirlari) maqomotida keltirilishicha 1178 va 1200 yillar orasida Abu Said Nishopurga borib, Qushayriy maktabida ta'lim berib yurganida uni ziyorat qilgan. Ushbu manbaga ko'ra, Qushayriy fikriy ziddiyatlar tufayli shogirdlariga Abu Said ma'ruzalarida ishtirok etishni taqiqlagan. Buning sababi Qushayriy mo'tadil tasavvuf tarafdori bo'lib, u tasavvufni sunniylik ta'limoti va shariat doirasida bo'lishi lozim deb hisoblagan. Uning bu masaladagi qat'iy pozitsiyasi ikki tasavvuf yetakchisi o'rtasidagi qarama-qarshilikka sabab bo'lган. Bir qancha vaqt o'tgach so'fiylar o'rtasidagi munosabatlar yaxshilanadi va har ikkala tasavvuf maktabi darslariga ishtirok etadigan talabalar paydo bo'ladi.

Yuqorida zikr etilgan, ikki so'fiyning o'zaro munosabati haqidagi bu hikoya Iroqning mashhur mutasavviflari Mansur Xalloj va Junayd Bag'dodiy o'rtasidagi munosabatlar haqidagi hikoyaga o'xshashdir. Bu rivoyatlar qiziqarli tuyulgani bilan haqiqatligi o'ta shubhalidir.

R.Gramlichning fikriga ko'ra, Qushayriy va Abu Said o'rtasidagi munosabatlar haqida bu hikoya ularning shaxsiyatini tasvirlovchi go'zal afsonadan boshqa narsa emas. Qolaversa, Qushayriy o'z asarlarida biror marta Abu Saidni tilga olmagan va unga ishora qilmagan.

Qushayriyning ustozи Abu Ali Daqqoq, o'z navbatida, Iroq maktabining Xurosondagi bosh vakili, Shibliyning shogirdi Abulqosim an-Nasraboziydan (977 y.v.e.) ta'lif oлган. Abu Bakr Dulaf bin Ja'far ash-Shibliy (861-946 yy.) esa jazbaga asoslangan o'ziga xos iroq tasavvuf maktabining yorqin namoyandasi bo'lib, Junayd Bag'dodiy va Mansur Xallojlarning yaqin shogirdi hamda izdoshi hisoblanadi.

Falsafa tarixida biror bir mutafakkir tafakkuri shakllanishini tahlil qilishda, albatta, uni shaxsi shakllanishida rol o'ynagan o'sha davrga xos tarixiy chetlab bo'lmaydi. Binobarin, Qushayriy yashagan arab xalifaligida diniy va falsafiy oqimlarning vakillari davlatda sodir bo'layotgan siyosiy o'zgarish hamda jarayonlar bilan chambarchas bog'liq bo'lishgan. Bundan tashqari, ular aksariyat hollarda aynan siyosiy o'zgarishlarning asosiy mafkurachisi va rahnamolari edilar.

O'sha davrdagi siyosiy voqealar keskin o'zgarishlarga boy bo'lgan. Kaspiy dengiziga yaqin bo'lgan hududdan chiqqan buvayhiylar sulolasи vakillari G'arbiy Eron va Iroqda (932-1055 yy.) hokimiyatni qo'lga kiritadilar. Ushbu sulolaga aka-uka Ahmad, Hasan va Ali asos soladi. Ularning otasi Buvayh Eron podshohi Bahrom Go'rning avlodi bo'lib, Daylam (Gilon viloyatining tog'li qismi)dagи jangari qabilalarning boshlig'i edi. Shuning uchun ularni manbalarda daylamiyalar deb ham ataydilar. Buvayh 930 yilda somoniylardan mustaqil bo'lib, ziyoriylarta qo'shiladi. Ziyoriylar hukmdori Mardovij (928-935 yy.) Buvayhning o'g'li Alini Karaj shahriga voliy etib tayinlaydi, Ahmad va Hasanni esa qo'shinga harbiy sarkarda qilib qo'yadi. Buvayhiylar 932-945 yillarda Eron va Iroqning sharqiy hududlarini bosib olgach xalifa Al-Mustakfiy Billoh (Abdulloh) (944-946 yy.) ularni o'zlarini istilo qilgan viloyatlarga noib etib tayinlashga majbur bo'ladi. Ular o'zlarini qadimgi Eron shohlari kabi shahanshoh deb atay boshlaydilar.

Buvayhiylar adabiyot va ilm-fanga homiylik qiladilar, jumladan, Sheruz, Ray, Isfahonda kutubxona va madrasalar quradilar. Bu davlat yagona boshqaruvgaga ega bo'lmay, bosib olingen hududlar turli hukmdorlar o'rtasida bo'lib olingen. Shu bilan birga, davlatning rasmiy poytaxti ham bo'lмаган, chunki hokimiyat o'sha paytdagi eng kuchli hukmdor boshqargan shaharga o'tib turgan. Bunday boshqaruv tizimi davlatchilikning zaif jihatи bo'lishiga qaramay, u fan va san'atning rivojlanishiga imkoniyat yaratgan. Zero, har bir hukmdor o'z shahrining gullab-yashnashi va taraqqiyoti haqida qayg'urib, o'z saroyiga yozuvchi va olimlarni jalb qilishga intilgan. Bag'dodda rasadxona qurilib, xalifalikning eng obro'li va mashhur olimlari – faylasuflardan Ibn Sino, Miskavayh, shoir Firdavsiy, geograf Istaxriy, matematik va astronom Nasoviy, adabiyotshunos Tavhidiy kabilar saroyda qabul qilingan. Saroy mulozimlari va davlat arboblari ham siyosatchilarning sa'y-harakatlari tufayli yuksak saviyali va ilmli bo'lishgan. Shu bilan birga, saroy diniy ulamolardan ko'ra olimlarning ko'pligi bilan ajralib turgan. Intellektual qatlam vakillari, ular qatorida Qushayriy ham o'ta yuksak maqomga ega bo'lishgan. Yuqori mavqega ega bo'lgan ilm ahliga ham xalq, ham hokimiyat vakillari qulq tutishgan.

Boshqa tomondan, abbosiy xalifalar Buvayhiylarga bo'ysungach haqiqiy hokimiyat va qudratlarini yo'qotadilar. Xalifalar islam olamiga faqat aqliy va fikriy sohada ta'sir doirasini saqlab qoladilar. 1017 yilda xalifa al-Qodir (991-1031 yy.) maxsus farmon chiqarib, mo'taziliylardan o'z ta'limotlaridan butunlay voz kechishni talab qiladi. U agar mo'taziliyalar

itoat etmasalar, ularni jazoga tortish bilan tahdid qiladi. Mamlakatda sunniy islomdan tashqari barcha mazhablar bid'at deb e'lon qilinib, ularni masjid minoralaridan la'natlash, davlatdan haydab chiqarish va qatl etish boshlanadi.

O'sha yili u hanbaliy mazhabiga asoslangan va obro'li hanbaliy olimlari tomonidan imzolangan "Risola"ni tuzadi. U Bag'doddagi xalifa saroyida tantanali ravishda e'lon qilinadi. Bu hujjat "ar-Risolat ul-qodiriya" deb nomlanib, islom tarixida rasmiy ahamiyatga ega bo'lgan birinchi qonun hisoblanadi. Qushayriy bilan do'stona munosabatda bo'lgan xalifa al-Qoim (1031-1075 yy.) davrida ushbu hujjatning asosiy qoidalari yana tasdiqlanadi.

Ushbu "Risola"ning yozilishidan maqsad nafaqat mo'taziliylikni bid'at deb e'lon qilish, balki Bag'dodning shialar istiqomat qiladigan hududlariga kirib kelgan va ismoiliy mazhabini targ'ib qilayotgan fotimiylar missionerlarining faoliyatini to'xtatish bo'lgan. Bu hujjat shialikning har qanday shaklini, mo'taziliylik va hatto ash'ariylik tanqid ostiga olardi. Ash'ariylikni tanqid qilish sababi unda mo'taziliylar bilan murosaga kirishganligi an'anaviy e'tiqodga xavf deb qaralishida edi. Shunday qilib, har qanday shialik oqimlari va mo'taziliylik ta'limotini targ'ib qilish taqiqlandi va hanbaliylar ta'siri ostida payg'ambar alayhissalomning sahobalariga ehtirom ko'rsatish haqiqiy mo'minlarning burchi sifatida asosiy o'ringa chiqarildi.

Fon Gryunebaumning fikriga ko'ra, tasavvuf ham ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar ta'siri ostida qolgan: so'nggi buvayhiylar davrida so'fiylar shariatni tasavvufdag'i ma'rifatning zaruriy sharti sifatida ko'ra boshlaganlar, shuningdek, ilohiyotshunoslarni tasavvufiy shakllarni tan olishga chaqira boshlaganlar [4:146]. Bu holat o'sha davrda hanafiylar ta'sirining zaiflashishi, shariatning so'fiylar ta'siri ostiga bo'lishi, olim bilan oddiy odamlarning e'tiqodi o'rtasida farqning paydo bo'lishi, hanbaliylarning ilm-fanga qarshiligi bilan bog'lanadi. Bularning bari buvayhiylar hukmronligi davriga to'g'ri keladi. Shuning uchun oddiy xalq uchun sunniy ulamolar tomonidan qo'llab-quvvatlangan, e'tiqod va shariat bilan mos keladigan tasavvufiy konsepsiyanı yaratish ehtiyoji vujudga keladi. Aynan shu istak Qushayriyning tasavvufni nima bo'lishidan qat'iy nazar sunniy islom e'tiqodi doirasiga kiritishga intilishini tushuntiradi.

Tahlil va natijalar. Tasavvuf bilan bir qatorda ash'ariylik ham mo'taziliylik va oqimlarga ajralishni tanqid qilishiga qaramay taqibga uchradi. Biroq, bu oqimlar uchun asosiy xavf buvayhiylar sulolasi va siyosiy ta'sir kuchiga ega bo'lмаган abbosiy xalifalar tomonidan emas edi. O'sha davrdagi keskin siyosiy o'zgarishlar natijasida ko'chmanchi xalq – saljuqiylar hokimiyat tepasiga kelgach ortodoksal sunniylikga mansub bo'lмаган oqimlarning vakillariga og'ir sinovli kunlar keldi.

Adududdavla vafotidan so'ng mamlakatda boshlangan taxt uchun kurash oqibatida buvayhiylar zaiflashib qolib, 1029 yilda mamlakatning sharqiy qismi Mahmud G'aznaviy tomonidan ishg'ol etiladi. 1055 yilda esa saljuqiylarning kirib kelishi natijasida buvayhiylar sulolasi hukmronligini batamom tugatiladi. Ko'chmanchi saljuqiylar buvayhiylarga nisbatan taraqqiyotda biroz ortda edi. Turkiy qabilalar islomni forslarga nisbatan kechroq qabul qilgandilar va ularning maqsadi buvayhiylardan farqli ravishda islom bayrog'i ostida Sharqqa qarab hududlarni kengaytirishga yo'naltirilgan edi. Turkiy qabilalarning asosiy maqsadi Afg'oniston va Hindistonni egallash bo'lgan.

Saljuqiylar harbiy qudratga qaramay, egallab olgan hududlarida ma'lum bir muddat mustahkam o'rnashib olishga muvaffaq bo'ldilar. Ular markazlashtirilgan hokimiyatga ega bo'lмаганликлари uchun egallangan hududlarning aholisi tez orada qo'zg'olon ko'tarib, mustaqil bo'lishga intila boshlashdi. Bu vaqtga kelib bu yerlarning aholisi islom dinini qabul qilib,

musulmon ummatining bir qismiga aylandi. endi hokimiyat o'z mavqeini mustahkamlash va legitimligini isbotlashi hamda aholi tomonidan qo'llab-quvvatlanishi uchun diniy ulamolarga ehtiyoj paydo bo'ldi. Bunday ijtimoiy vaziyatda faqat yagona din turli xalqlarni birlashtiradigan hamjamiyatga aylantirishga xizmat qilardi. Davlat va hokimiyat vakillari buni anglab yetgandilar. Shuning uchun ham davlat ilohiyotga e'tiborni kuchaytira boshladi. Saljuqiyarning asosiy maqsadi sunniylikni kuchaytirish, uni aqliy vositalar bilan mustahkamlash bo'lgan. Buni ularning rukn ud-davla - "davlatning ustuni" va rukn ud-din - "dinning ustuni" kabi faxriy davlat unvonlarini joriy etganligi ham dalolat beradi.

Saljuqiy sulton To'g'rulbek (1038-1063 yy.) hukmronligi davrida hanafiy bo'lgan Abu Nasr Kunduriy Nishopuriy (1021-1064 yy.) vazir etib tayinlanadi. U juma xutbalarida rofiziylarni la'natlashga, so'ngra esa ash'ariylarga la'nat aytishga buyruq beradi. Yuqorida aytganimizdek, Abulqosim Qushayriy bu vaziyatda Nishopurdagi shofe'iy-ash'ariylar jamoasining rahbari o'laroq shahardagi hanafiylar va shofe'iylar o'rtasidagi ixtilofda ishtirok etadi. 1045 yilda u hanafiylargacha murojaat etilgan fatvoni imzolab, unda Ash'ariy ta'limoti sunnaga muvofiq ekanligi va shariatga mosligini ta'kidlab, mo'taziliylar, rofiziylar, xorijiylar va dinga bid'at kiritadigan musulmonlarga qarshi chiqadi.

Xulosa va takliflar. Qushayriy o'ziga qarshi uyushtirilishi mumkin bo'lgan ehtimoliy taqib va ko'ngilsiz oqibatlardan qo'rqligini, 1054 yilda "Shikoyat ahli Sunna" (Sunniyarning boshiga tushgan baxtsizlikdan shikoyati) deb nomlangan risolani yozadi va uni turli mamlakatlarning olimlariga jo'natadi. Ushbu risolada u Ash'ariyning imondan og'ishning barcha ko'rinishlarini qoralaganligini, Qur'onning yaratilmaganligi va uning xudoning kalomi ekanligini ta'kidlaydi. Mutafakkir bu risolada mujasimiylar, qadariylar, karromiyalar va mo'taziliylarga qarshi dalillarni keltiradi. U agar odamlarda Kalom ilmi va e'tiqod to'g'risida tushuncha va bilimga ega bo'lmasalar, ular mo'min emas, balki oddiy taqlidchilardir deb uqtiradi. Qushayriy ash'ariylarning g'oyaviy rahnamosi sifatida hibsga olinib, Nishopur yaqinidagi Ko'handiz shahri qal'asiga bir necha haftaga tashlanadi. Biroq, ko'p o'tmay u o'zining tarafdarlari tomonidan ozod etiladi.

Qushayriy ilmiy merosi va falsafiy qarashlarini o'rganish uchun manbalarni tarixiy, falsafiy jihatdan tahlil qilish zarurati mavjud. Mutafakkir qarashlarini falsafa tarixi nuqtai nazaridan o'rganishda, birinchi navbatda, asarlarning aksar qismi yo'qolganligi, borlari ham hali tarjima qilinmaganligi tadqiqot ishlarini murakkablashtiradi. Bu esa Qushayriy asarlari saqlanadigan jahon kutubxonalaridan ularning nuxalarini olishni talab etadi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида" ги Фармони, 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон.
2. Gujarati, Damodar N.: Basic Econometrics, 4th ed., McGraw-Hill, New York, 2004.
3. www.stat.uz
4. <http://www.gospodarkainnowacje.pl/index.php/poland/article/view/78>
5. <http://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/download/2418/686>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

N^o 3 (3) – 2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**" электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яққасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).